



“AZ-ZUHD VAR-RAQOIQ” ASARINING QO‘LYOZMA NUSXALARI

Akmal Ulug‘murotov

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16092996>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-Iyul 2025 yil

Ma‘qullandi: 11-Iyul 2025 yil

Nashr qilindi: 18-Iyul 2025 yil

KEY WORDS

Valiyuddin Jorulloh, Abdulloh ibn Muborak, Zuhd va raqoiq, qo‘lyozma nusxalar, hadis va rivoyat zanjiri, ilmiy meros, islomiy axloq va tasavvuf, Umar ibn Muhammad ibn Tabarzod Bag‘dodiy.

ABSTRACT

Ushbu maqolada buyuk muhaddis va zahid ulamo Abdulloh ibn Muborakning eng mashhur asari — “Kitob az-Zuhd var-Raqoiq” nomli kitobining tarixiy, ilmiy va qo‘lyozma manbalari chuqur ilmiy-tanqidiy tahlil etiladi. Maqolada ushbu asarning uch muhim qo‘lyozma nusxasi — Valiyuddin Jorulloh kutubxonasidagi (Istanbul), Iskandariya shahridagi Umumiy kutubxona (Misr) va Damashqdagi Zohiriya kutubxonasida (Suriya) saqlanayotgan ko‘hna nusxalari asosida olib borilgan matnshunoslik tahlillari keltiriladi.

Har bir nusxa o‘zining rivoyat zanjiri, yozilgan sanasi, roviylari va boblar tarkibi jihatidan tafsiliy tarzda o‘rganiladi. Jumladan, Marvaziy nusxasi 527/1133-yillarga borib taqalib, mashhur muhaddislar zanjiri orqali rivoyat etilgan. Hammud nusxasi esa bevosita Abdulloh ibn Muborakdan Nu‘aym ibn Hammud orqali kelib chiqqani bilan ajralib turadi. Damashqdagi nusxa esa Umar ibn Tabarzod tomonidan rivoyat etilgan va muallif tomonidan sahih nusxa sifatida qayd etilgan.

Maqolada, shuningdek, har bir qo‘lyozma nusxadagi boblar soni, nomlanishi va mazmuni o‘rtasidagi farqlar ilmiy asosda taqqoslanadi. Ayrim boblar nomlanishidagi farqlar, mavjud va mavjud bo‘lmagan hadislar, qo‘shimchalar, istilohlar va ularning sharhlanishi haqida ham tahliliy izohlar berilgan.

Abdulloh ibn Muborakning qalamiga mansub “Kitob az-zuhd var-raqoiq” kitobi u kishini shoh asarlaridan biri desak adashmagan bo‘lamiz, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, mazkur kitob dunyo yuzini ko‘rganiga ko‘p zamonlar bo‘ldi. Hatto uni zohidlik mavzusida chop etilgan ilk kitob desak ham, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Quyida biz bu kitobni qisqacha “Zuhd” deb ataladi.

Abdulloh ibn Muborak jamlagan “Zuhd”ning bir nechta nusxasi bo‘lib, hammasining asli

Istambuldagi Valiyuddin Jorulloh kutubxonasi bilan olingan. Uning tarixi hijriy yettinchi asrdan avvalgi paytlarga borib taqaladi. Chunki u yerda mazkur kitob samo'an, ya'ni muallif tarafidan o'z qulog'i bilan eshitilib 600/1204-yildan so'ng yozilganligi qayd qilingan. Ushbu nusxa qo'ldan qo'lga o'tib, oxiri mazkur Valiyuddin Jorulloh qo'lga tushgandan keyin, u kishi bu nusxani Alloh yo'lida vaqf qilgan.

Bu nusxa o'n bir ju'zdan iborat bo'lib, birinchi juzi 527/1133-yilda vafot etgan Abu G'olib Ahmad ibn Al-Husayn¹ ibn Ahmad ibn Banno rivoyati bilan kelgan.

Ibn Javziy Abu G'olib ibn Banno haqida shunday deydi: - Men o'zim undan hadis eshitganman va u siqa-ishonchli roviy edi, Zahabiy ham, Ibn Ammod ham uni Iroq musnadida vasflagan.

U 527/1133-yilda, 82 yoshida vafot etgan.

Uning bobosi Abu Ya'lo Hasan ibn Ahmad ibn Abdulloh ibn Banno ham Qozi Abu Ya'lodan hadis eshitganlardan biri bo'lib, uning shogirdlaridan sanaladi.

Abdulloh ibn Muborakdan hadislar eshitgan va rivoyat qilgan Abu Abdulloh Husayn ibn Hasan ibn Harb Al-Marvaziy - umrining oxiri Makkada qo'nim topgan bo'lib, u imom Termiziyga, imom Ibn Mojjaga, shuningdek Abu Hotam, Yahyo ibn Sa'id va yana bir qancha kibor muhaddislar va ishonchli hofizlarga ustoz sanaladi.

Uning tarjimai holini Ibn Hibbon "Siqalar" (ishonchlilar) nomli kitobida, Ibn Abu Hotim "Jarh va ta'dil" da, Hofiz (Zahabiy) esa "Tahzib at-tahzib" kitobida zikr qilgan.

Abdulloh ibn Muborakning "Zuhd" kitobini Husayn ibn Hasan Marvaziydan eshitgan va rivoyat qilgan roviy - Yahyo ibn Muhammad ibn So'id ibn Kotib bo'lib, hofiz Zahabiy u haqda shunday degan: "U hofiz, imom, siqa Abu Muhammad Hoshimiy Bag'dodiy bo'lib, 228/843-yilda tug'ilgan va Luyindan, Ahmad ibn Mani'dan, Sivor ibn Abdulloh Qoziydan, Yahyo ibn Sulaymon ibn Fazladan, shuningdek, Hasan ibn Hammod Sajjoda, Abu Humom Sakuniy, Horun ibn Abdulloh Hammoldan va yana bir qancha odamlardan hadis rivoyat qilgan.

Ushbu qo'lyozma nusxasi 135 varaqdan iborat bo'lib, uni Husayn ibn Hasan Marvaziy nusxasi deyiladi. Aynan shu kishidan barcha mashriq ahli bu kitobni rivoyat qilgan. Quyida mazkur nusxaning roviylari to'g'risida birma-bir ma'lumot keltiriladi.

Abdulloh ibn Muborak qalamiga mansub "Zuhd" kitobining ikkinchi nusxasi - Iskandariya munitsipalitetiga qarashli Ommaviy kutubxonada saqlanadi. U taxminan 466/1074-yilda mag'ribiy xatda yozilgan.

Uni Nu'aym ibn Hammod muallifdan, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri Abdulloh ibn Muborakni o'zidan rivoyat qilgani bois Nu'aym ibn Hammod nusxasi deyiladi. Huddi avvalgi nusxani Husayn ibn Hasan Marvaziy nusxasi deyilganidek.

Bu nusxa avvalgi nusxadan boblari va tartibi jihatidan ham, biridan bor rivoyatlar boshqasida yo'qligi jihatidan ham, ya'ni ko'p jihatdan farq qiladi.

Masalan, birinchi nusxa boblari 50 ta bo'lsa, ikkinchi nusxaning hozirda mavjud bo'lgan qismining o'zida 177 bob mavjud.

Shuningdek, ikkala nusxada mavjud bo'lgan mushtarak boblar ham, nomlanishida bir biridan farq qiladi va kamdan-kam holatda ikkala nusxa boblari bir xil nomlanadi²

Masalan, Marvaziy nusxasida birinchi bobga "Alloh azza va jallaning toatiga qiziqtirish bobi" deb nom berilgan bo'lsa, Hammod nusxasida ayni bobga: "Amalga shoshilmoq uchun

¹ Muhammad Muhammad Abu Zahv. Al-Hadis va al-muhaddisun. - Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1984. - B. 512 .

² Muhammad Muhammad Abu Zahv. Al-Hadis va al-muhaddisun. - Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1984. - B.265 .

targ'ib etish bobi" degan sarlavha qo'yilgan. Marvaziy nusxasida ikkinchi bob: "Dunyo topish ilinjida ilm izlash (yomonligi) haqida kelgan rivoyatlar" deb nomlangan bo'lsa, Hammod nusxasida huddi shu bob: "Ilmiga amal qilmagan kishi haqida kelgan rivoyatlar" deb nomlangan.

Shunday qilib, bu nusxalarning har birida boshqasida bo'lmagan hadislar va asarlar mavjud bo'lib, birinchi nusxada yo Marvaziy va yo Ibn So'id qo'shgan ziyodalar ko'proq bo'lsa, ikkinchi nusxada asosan Nu'aym ibn Hammodning qo'shimchalari o'rin olgan.

Abdulloh ibn Muborak "Zuhd"ning uchinchi nusxasi Damashqdagi Zohiriya kutubxonasida saqlanadi. Mazkur nusxa Umar ibn Tabarzod Bag'dodiyning Abu G'olib Ahmad ibn Hasan ibn Banno rivoyatidan yozilgan. Ibn Banno haqida esa yuqorida ma'lumot berib o'tildi.

Ushbu nusxa ostiga Umar ibn Tabarzodning o'zi: "Bu sahih nusxa, uni Umar ibn Muhammad ibn Tabarzod Bag'dodiy yozdi.." deb yozib qo'ygan.³

Abdulloh ibn Muborak qalamiga mansub "Zuhd"ning shu paytgacha chop qilingan yoki bugungi kunda nashr qilinayotgan kitobilarning barchasi ushbu uch nusxa asosida tayyorlangan. Masalan, bu ajoyib asar 1995-yilda shayx Ahmad Farid tahqiqi ostida Riyoz shahridagi "Dorul Me'roj" davlat nashriyotida chop qilingan.

Abdulloh ibn Muborak asarni rivoyat qilishda o'ziga xos yo'l tutib, o'zining qarashini isbotlash uchun dalillar keltirib, kitobni qo'shimcha ilmiy ma'lumotlar bilan boyitgan. "Zuhd"da o'ziga xos istilohlardan foydalangan. Asarni sharhlagan olimlar istilohlarning ma'nosiga alohida to'xtalib, ularni izohlab berganlar.

Abdulloh ibn Muborak Marvaziy asarga muhaddis sifatida yondoshgani uning boshidan oxirigacha to'liq sezilib turadi. Odob-axloq masalalaridan uzoq lashmay hadislarga izoh bermaslikka intilgan.

Keltirilgan hadislarda ifodalangan umuminsoniy g'oyalar, axloq-odob qoidalari shaxsni komillikka undab, jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutgan⁴. Rasululloh (s.a.v) vidolashuv hajida shunday dedilar: "Sizlarga kim mo'min deyilishini aytaymi? Mo'min – odamlar o'z mollari va jonlari uchun (tajovuz qilmasligiga ishonib) ko'ngli xotirjam bo'lgan kishidir. Musulmon – musulmonlar uning tilidan ham, qo'lidan ham salomat bo'lgan kishidir. Mujohid – Allohga itoat qilish yo'lida nafi bilan kurashgan kishidir. Muhojir – gunohlar va xatolarni tark qilgan kishidir".

Abdulloh ibn Muborak asarni rivoyat qilishda o'ziga xos yo'l tutib, o'zining qarashini isbotlash uchun dalillar keltirib, kitobni qo'shimcha ilmiy ma'lumotlar bilan boyitgan. "Zuhd"da o'ziga xos istilohlardan foydalangan. Asarni sharhlagan olimlar istilohlarning ma'nosiga alohida to'xtalib, ularni izohlab berganlar.

Abdulloh ibn Muborak Marvaziy asarga muhaddis sifatida yondoshgani uning boshidan oxirigacha to'liq sezilib turadi. Odob-axloq masalalaridan uzoq lashmay hadislarga izoh bermaslikka intilgan.

Keltirilgan hadislarda ifodalangan umuminsoniy g'oyalar, axloq-odob qoidalari shaxsni komillikka undab, jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutgan⁵. Rasululloh (s.a.v) vidolashuv hajida shunday dedilar: "Sizlarga kim mo'min

³ Murodov D. Hadisshunoslik atama va iboralari (qisqacha izohli lug'at). – T.: Fan, 2009. – B.176.

⁴ Muhammad Muhammad Abu Zahv. Al-Hadis va al-muhaddisun. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1984 – B.256.

⁵ Muhammad Muhammad Abu Zahv. Al-Hadis va al-muhaddisun. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1984 – B.256.

deyilishini aytaymi? Mo'min – odamlar o'z mollari va jonlari uchun (tajovuz qilmasligiga ishonib) ko'ngli xotirjam bo'lgan kishidir. Musulmon – musulmonlar uning tilidan ham, qo'lidan ham salomat bo'lgan kishidir. Mujohid – Allohga itoat qilish yo'lida nafs bilan kurashgan kishidir. Muhojir – gunohlar va xatolarni tark qilgan kishidir”.

“Zuhd” kitobini o'rganar ekanmiz, ushbu kitobda keltirilgan hadislar asosan odob-axloq, xulq-atvorga taalluqli ekanligini ko'ramiz. Bu kitobda hikmatlar, mav'izalar, masalalar, ahloq-odob, Allohning marhamati, tavbaning qabuli hamda yolg'onchilik va riyoni mazammam qilish, musibatga sabr qilishga o'xshash narsalar to'g'risida Payg'ambar (s.a.v)ning hadisi shariflari va sahobalar, tobeinlarning asarlari jam qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил, 20 сентябрь. – № 189 (6883).
2. “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ – 2855-sonli qaror. 2017-yil 27-mart.
3. Alouddin Mansur. Qur'oni karim ma'nolari o'zbekcha izohli tarjimai. – Toshkent: Cho'lpon, 1992. – 672 b.
4. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: TIU, 2012. – 686 b.
5. Muhammad Aliy Sobuniy. Ravoi' al-bayon – tafsir ayat al-ahkom min al-Qur'on. – J: 2. – Damashq: Dor al-qalam, 1990.
6. Movarounnahr allomalarining hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissalar / I.Usmonov tahriri ostida. – Toshkent: Movarounnahr, 2011.
7. Uvatov U. Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim Imom at-Termiziy. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 1998. – 63 b.